



“Қувноқлар ва зукколар-2023”



ҒОЛИБЛАР АНИҚЛАНДИ

ФВВ тизимидаги ҳудудий бошқармалар ўртасида “Қувноқлар ва зукколар” кўрик-танловининг республика босқичи ўтказилди. Ёшларни ватанпарварлик, инсонийлик, тинчлик, дўстлик, садоқат руҳида тарбиялаш, уларнинг интеллектуал салоҳиятини янада ошириш, ёшлар ўртасида соғлом турмуш тарзини тарғиб қилишни мақсад қилиб қўйган мазкур кўрик-танловнинг якуний босқичига Қашқадарё вилояти мезбонлик қилди.

Танловда Қашқадарёнинг “Темурбеклар”, Сурхондарёнинг “Элегант”, Хоразмнинг “Қувноқ қутқарувчилар”, Сурхондарёнинг “Божалар” терма жамоалари чемпионлик учун баҳс олиб боришди.

Тадбир Қарши шаҳридаги 1-сонли Маданият марказида бўлиб ўтди. Иштирокчилар 4 та шарт бўйича беллашдилар. Кўрик-танлов ФВВ Марказий аппарати масъуллари, маданият ва санъат ходимларидан иборат ҳайъат таркиби томонидан одилона баҳоланди.

Қувноқ ва қизиқарли кечган беллашувлар якунига кўра, 3-ўринга Сурхондарё

вилоятининг “Элегант” жамоаси муносиб кўрилди. 2-ўрин Сурхондарё вилоятининг “Божалар” жамоасига насиб этди.

Ўзининг тақдорланмас ва қизиқарли сахна чиқишлари билан томошабинларга юқори кайфият улашган Қашқадарё вилояти ФВБнинг “Темурбеклар” жамоаси 1-ўринни қўлга киритди.

Ғолиб ва совриндор жамоалар мутасаддилар томонидан эсдалик совғалари билан тақдирландилар.

Н.АБДУЛЛАЕВ,
Қашқадарё вилояти ФВБ бошлиғи
ўринбосари, подполковник.



Сўз сайловчиларга

ХАЙРЛИ ИШЛАР ДАВОМ ЭТАДИ

Қисқа давр тарихига назар ташлайдиган бўлсак, 2017 йилда юртимизда кўп жабҳаларда бўлгани каби ФВВ тизимида ҳам тубдан янгиланиш ва изчил ислохотлар бошланганлиги, энг муҳими, бу борада ишончли пойдевор қўйилганлигининг гувоҳи бўламиз.

Шу пайтгача Фавқулодда вазиятлар вазирлиги қидирув-қутқарув жамоалари ва ёнғин ўчириш хизматлари қай кўриниш ва ҳолатда ҳаракатланарди, деган ҳақли савол туғилади.

Қайд этиш керакки, фавқулодда вазиятларнинг олдини олиш ва содир бўлганда оқибатларини бартараф этиш тизими ҳар томонлама такомиллаштирилди, яъни бугунги кунгача ёнғин ва ёнғинлар билан боғлиқ фавқулодда вазиятларнинг олдини олиш тадбирлари ФВВ ҳамда Давлат ёнғин хавфсизлиги хизматларининг хавфсизликни таъминлашдаги саъй-ҳаракатларида ўхшашлик юзага келарди. Бундан ташқари, ФВ йўналишларида корхона ва ташкилотларда ўрганиш, назорат-текширув ишларида ҳам бир-бирини такрорлаш ҳолатлари кузатиларди.

2017 йил 1 июнда Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Фавқулодда вазиятларнинг олдини олиш ва уларни бартараф этиш тизими самарадорлигини тубдан ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги фармони, 2 июнда эса “Аҳоли ва ҳудудларни фавқулодда вазиятлардан муҳофаза қилиш соҳасида мутахассислар тайёрлаш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги, “Ўзбекистон Республикаси Фавқулодда вазиятлар вазирлиги фаолиятини янада такомиллаштириш бўйича ташкилий

тадбирлар тўғрисида”ги муҳим қарорлари эълон қилинган эди.

Бу шубҳасиз, республикаимиз аҳолиси ва ҳудудларини фавқулодда вазиятлардан муҳофаза қилиш давлат тизимини такомиллаштириш бўйича бошланган ислохот ва янгиланишлар янгича мазмун ва сифат касб этди.

Эзгу амалий саъй-ҳаракатлар натижасида 2019 йил 10 апрелда Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасида фавқулодда вазиятларнинг олдини олиш ва бартараф этиш ҳамда ёнғин хавфсизлигини таъминлашнинг сифат жиҳатидан янги тизимини жорий этиш тўғрисида”ги фармони, 10 апрелда “Фавқулодда вазиятлар тузилмаларининг фаолиятини янада такомиллаштириш бўйича ташкилий чора-тадбирлар тўғрисида”ги қарори эълон қилинди. Мазкур ҳужжатлар ўз мазмун-моҳиятига кўра, мамлакатимиз фавқулодда вазиятлардан муҳофаза қилиш соҳасида навбатдаги тарихий саҳифалардан бирини очди, десак хато қилмаган бўламиз.

Соҳа бўйича чуқур ўрганиш ва таҳлиллар, кузатиш ва тажриба алмашишлар самараси ўлароқ,



шунингдек, 2017–2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегиясининг бешинчи устувор йўналиши доирасида қабул қилинган фармонга мувофиқ, Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар вазирлиги таркибидаги Давлат ёнғин хавфсизлиги хизмати Ўзбекистон Республикаси Фавқулодда вазиятлар вазирлиги тизимига ўтказилди.

Юқоридагилардан келиб чиқиб, айтиш мумкинки, ислохотлар жараёнида амалга оширилаётган тадбирлар Фавқулодда вазиятларнинг олдини олиш ва ҳаракат қилиш давлат тизими самарадорлигини тубдан ошириш билан боғлиқ қатор долзарб вазифаларни тўлақонли даражада бажариш имконини беради. Бу эса “**Ўз вақтида огоҳлантириш, қутқариш ва ёрдам бериш!**” деган эзгу

шиор остида юртимиз аҳолиси ва ҳудудларини ёнғин, табиий ва техноген хусусиятли фавқулодда вазиятлардан ишончли муҳофаза қилишда ўзига хос асос бўлиб хизмат қилади.

Сўзим якунида шуни алоҳида таъкидлаб ўтмоқчиманки, айтиш мумкинки, республикаимиз бўйлаб муҳим сиёсий жараён давом этмоқда.

Мамлакатимиз келажги, халқимизнинг тақдирини ўйлаб, Президентлик сайловида фаол иштирок этган ҳолда, оила аъзоларимиз билан муддатидан олдин ўзимиз танлаган номзодга овоз бериб келдик.

Эргаш ИКРОМОВ,
ФВВ Фахрийлар марказий кенгаши раиси,
истеъфодаги полковник.

МУНОСИБ НОМЗОДГА ОВОЗ БЕРАМАН!

Барчамизга маълумки, сўнгги йилларда Ўзбекистон Республикаси Фавқулодда вазиятлар вазирлиги тизими фаолиятини янада такомиллаштиришга хизмат қиладиган ҳуқуқий-меъёрий ҳужжатлар қабул қилиниб, амалиётга жорий этилмоқда. Бу каби самарали ишлар натижасида қидирув-қутқарув кучларининг фавқулодда вазиятларнинг олдини олиш ҳамда уларнинг оқибатларини бартараф этишга оид тайёргарлик даражаси янада оширилмоқда.


Албатта, соҳа тизимидаги ҳар бир ҳарбий хизматчи ва хизматчи юртимиз аҳолиси ва ҳудудларини ёнғинлар, турли хусусиятли фавқулодда вазиятлардан муҳофаза қилишга ўз ҳиссасини қўшиб келмоқда. Жумладан, мен ҳам 2018 йилда “Қамчиқ” махсус қидирув, ёнғин-қутқарув бошқармасида илк хизмат фаолиятимни бошлаган бўлсам, ўтган давр мобайнида сафдошларим билан бирга авариялар, ҳалокатлар, табиий ва

техноген тусдаги фавқулодда вазиятлар оқибатларини бартараф этишда қатнашиб келмоқдаман.

2023 йил 6 февраль куни бутун дунёни ларзага солган воқеа – Туркия Республикасининг Жануби-Шарқида, Сурия билан чегарадош ҳудудларида юз берган бир қанча кучли ер силкинишлари келтирган вайронагарчиликни бартараф этишда ўтюррак халоскорларимиз, навқирон, забардаст йигитлардан таркиб топган қутқарув гуруҳининг таркибида 18 кун мобайнида Туркияда

бажарган вазифаларимиз, ўзбекистонлик қутқарувчиларнинг матонати нафақат халқимиз, балки дунё ҳамжамиятининг эътирофига сазовор бўлди.

Шу ўринда қайд этиш жоизки, мамлакатимиздаги энг муҳим сиёсий жараён ҳисобланган Ўзбекистон Республикаси Президенти сайлови-га ҳам санокли кунлар қолмоқда. Ушбу муҳим воқеликнинг муваффақиятли ўтишини таъминлаш мақсадида сайлов участкаларида пухта тайёргарлик кўрилган. Ушбу сиёсий воқеанинг миллий қонунчилик талаблари ҳамда халқаро нормаларга мос демократик тарзда, адолатли ўтишини таъминлашда ФВВ ходимлари зиммасига ҳам масъулиятли вазифалар юклатилган.



Сайловчи сифатида номзодларнинг таржимаи ҳоли ва сайловолди дастурлари билан тўлиқ танишиб чиқдим. Уларнинг дастурларида ҳар бир инсонга ўз салоҳиятини рўёбга чиқариш учун зарур шарт-шароит яратиш, мамлакатимизнинг

ижтимоий-иқтисодий тармоқларини янада ривожлантириш биринчи мақсад эканини кўриш мумкин. Демак, бу йилги сайлов аввалгиларига қараганда бир қатор афзаллик ва қулайликлари билан ажралиб туради.

Мен ҳам сайловчи сифатида мана шундай сиёсий жараёнда фаол иштирок этиб, ўзимнинг конституциявий ҳуқуқимдан фойдаланган ҳолда, ўзим, оилам, яқинларим, юртдошларим учун муносиб номзодга овоз бераман ҳамда фуқароларимизни Президентлик сайловида фаол бўлишга ундайман!

Бобур МУҲИДДИНОВ,
Ўзбекистон Республикаси ФВВ МВБРҚМ йўриқчи-қутқарувчиси,
кичик сержант.

YOSHLAR – O‘ZBEKISTON KELAJAGI!

Maxsus muhandislik-qurilish boshqarmasi, Yoshlar ishlari agentligi Toshkent viloyati bo‘limi hamda Mudofaa vazirligi harbiy havo kuchlari harbiy qismi hamkorligida “Yoshlar – O‘zbekiston kelajagi!” shiori ostida “Ochiq eshiklar kuni” tashkil etildi.



Tadbir davomida havo hujumidan himoya, harbiy qurol-aslahadan foydalanish hamda parashut tayyorgarligi mashg‘ulotlari bo‘lib o‘tdi.

SH.AHMADALIYEV,
tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar bo‘limi boshlig‘i, kapitan.

AKADEMIYA KURSANTLARI – TANLOV G‘OLIBI

O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universitetida I Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman o‘tkazildi. Tadbirda Rossiya Federatsiyasining Ta‘lim Akademiyasi vakillari, A.S.Pushkin nomidagi Rus tili davlat instituti hamda Sankt-Peterburg davlat universiteti, Moldova “Rus tili va adabiyoti o‘qituvchilari jamiyati” Prezidium a‘zolari, Vyetnam Xanoy davlat universiteti, Eron Tarbiyat Modares universiteti, MG Jamoat xavfsizligi universiteti, Favqulodda vaziyatlar vazirligi Akademiyasi, Qurolli Kuchlar Akademiyasi, Chirchiq oliy tank qo‘mondonlik-muhandislik bilim yurti, Bojxona instituti professor-o‘qituvchilari va kursantlari onlayn va offlayn tarzda ishtirok etdilar.



Mazkur anjuman doirasida oliy harbiy ta‘lim muassasalari rus tili fani mutaxassislari o‘rtasida tanlov e‘lon qilindi. Tanlovda akademiya kursantlari – 4-bosqich kursanti Jalol Sa‘dullayev hamda 2-bosqich kursanti Bahodir Xolxodjayevlar 1-o‘ringa munosib deb topildilar.

Xalqaro ilmiy-amaliy anjumanida Akademiya nomidan faol ishtirok etgan “Tillar” kafedrasida boshlig‘i I.v.b., podpolkovnik M.Badalbayeva, katta o‘qituvchi D.Rasulova hamda akademiya kursantlariga Jamoat xavfsizligi universiteti boshlig‘i tomonidan tashakkurnoma va esdalik sovg‘alari tantanali topshirildi.

FVV Akademiyasi
matbuot xizmati.

TRENING



FVV Akademiyasi huzuridagi Fuqaro muhofazasi institutida “Unicef” jamg‘ar-masining O‘zbekistondagi vakolatxonasi bilan hamkorlikda “Ofatlar tahdidini pasaytirishda XXI asr ko‘nik-malaridan foydalanish hamda favqulodda vaziyatlar sharoitlarida gender tenglikni ta‘minlash” mavzusida trening o‘tkazildi.

Seminarda Toshkent shahar va Toshkent viloyati FVBlarining Hayot faoliyati xavfsizligi o‘quv markazlari xodimlari, Toshkent va Namangan viloyatlari maktab o‘qituvchilari, Fuqaro muhofazasi instituti pedagog xodimlari ishtirok etishdi.

D.TOJIBOYEVA,
FMI o‘qituvchisi.

FVV Muhandislik-muhofaza va qurilish-tiklash ishlari bosh boshqarmasi boshlig‘i o‘rinbosari – Maxsus muhandislik-qurilish boshqarmasi boshlig‘i polkovnik D.Usmanov boshchiligidagi Qoraqalpog‘iston Respublikasi Taxtakopir tumaniga xizmat safariga jalb etilgan 2-Muhandislik-qurilish batalyoni muddatli harbiy xizmatchilari bilan uchrashuv tashkil etildi.

RAHBAR VA YOSHLAR

Unda Taxtakopir tumani boshqarmasi boshlig‘i o‘rinbosari polkovnik Ch.Bekturgenov, FVV Tashkiliy-tezkor boshqarmasi boshlig‘i o‘rinbosari polkovnik O.Ziyoboyev, Nukus harbiy prokurori adliya



polkovnigi U.Abdurahimov, Taxtakopir tumani Ichki ishlar bo‘limi boshlig‘ining birinchi o‘rinbosari E.Odilov, Taxtakopir tuman “Daukara” APJ imom-xatibi Q.Imomov, Taxtakopir tuman maktabgacha va maktab ta‘limi bo‘limi psixologi Q.Sultonovlar ishtirok etdilar.

Ochiq muloqot tarzida kechgan tadbir davomida boshqarma boshlig‘i D.Usmanov va Nukus harbiy prokurori adliya polkovnigi U.Abdurahimovlar muddatli harbiy xizmatchilar fikr-mulohazalarini tinglab, ular bilan yakka tartibda suhbat o‘tkazdilar va huquqiy maslahatlar berdilar.

Tadbir so‘ngida xizmat o‘tash davrida namunali xulqi, tartib-intizomga rioya etishi hamda safdoshlari orasida o‘rnak bo‘lib kelayotgan bir guruh muddatli harbiy xizmatchilar tashakkurnoma va esdalik sovg‘alari bilan taqdirlandilar.

SH.AHMADALIYEV,
tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar bo‘limi boshlig‘i, kapitan.

“BU MENING TANLOVIM – BU MENING PREZIDENTIM!”

Maxsus muhandislik-qurilish boshqarmasi shaxsiy tarkibi ishtirokida Toshkent shahar Mirzo Ulug‘bek tumani hokimligi hamkorligida “Bu mening tanlovim – bu mening Prezidentim!” shiori ostida davra suhbat tashkil etildi.

Tadbir davomida saylovlarida ishtirok etish tartibi, nomzodlar haqida to‘liq ma‘lumotlar berib o‘tiladi.

SH.AHMADALIYEV,
tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar bo‘limi boshlig‘i, kapitan.



ҲАМКОРЛИК

FVV Akademiya si huzuridagi Fuqaro muhofazasi institutiga janob Christophe Germain boshchiligidagi Fransiyaning Uzbekistonda elchixonasi va janob Klemenс Koya boshchiligidagi Evropa da Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkiloti vakillari tashrif buyurdilar.



Tashrif rejasiga kura, favqulodda vaziyatlar Si-elchixonа xodimlari bilan mulayijas i markazida kўr-

gazmali mashg‘ulotlar ўtkazildi.

Mashg‘ulotlar davomida ishtirokchilar markazda tashkil etilgan zilzila tarixi muzei, bilimlarni sинаsh hamda relaksatsiya xonalari bilan yaqindan tanihib, tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlarни иммитация қилувчи тренажёрлар орқали амалий кўникмаларини оширдилар.

Tadbir yakunida Evropa da Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkilotining Ўzbekiston Respublikasida elchisi Klemenс Koya институт номидан эсдалик совга тақдим этилди.

А.ДЕҲҚОНОВ,
ФМИ бўлим бошлиғи ўринбосари, лейтенант.



ЮНИСЕФ ИШТИРОКИДА

Жорий йилнинг март-июнь ойлари давомида Наманган, Самарқанд, Сурхондарё, Тошкент вилоятлари ва Тошкент шаҳридаги 10 та лойиҳавий мактабда семинар-тренинг ва “Ёш қутқарувчи” мусобақалари ўтказилди.

Ушбу тадбирларда 1000 нафардан ортиқ таълим муассасалари масъуллари ҳамда ўқувчи-ёшларнинг фавқулдда вазиятлар, ёнгинлар ва бошқа тусдаги кўнгилсиз ҳодисаларда жабрланганларга биринчи ёрдам кўрсатиш бўйича кўникмалари оширилди.

Тадбир якунида фаол эштирок этган болажонлар тақдирланди.

Б.ЖҲРАЕВ,

ФМИ марказ бошлиғи, подполковник.

СЕМИНАР

ФВВ Академияси ҳузуридаги Фуқаро муҳофазаси институти томонидан тайёрланган “Ишлаб чиқариш ва хизмат кўрсатиш соҳасида банд бўлмаган аҳоли, шунингдек, жисмоний имконияти чекланган шахсларни зилзилада ҳаракат қилишга тайёрлаш” ҳамда “Жисмоний имконияти чекланган шахсларни зилзилада ҳаракат қилишга тайёрлаш” (Брайль алифбосида) мавзусидаги ўқув-услубий қўлланмаларни аҳолига етказиш юзасидан илмий-амалий семинар-тренинг ташкил этилди.



Унда ногиронлиги бўлган шахсларни зилзилада ҳаракатланишга тайёрлаш, бу борадаги муаммолар ва уларни ҳал этиш йўллари ҳамда Ўзбекистонда кучли зилзилалар хавфини прогностлашнинг ҳозирги

ҳолати бўйича маърузалар қилинди.

Шунингдек, тадбир давомида ўқув-услубий қўлланмалар иштирокчиларга тарқатилди.

Б.ДЖУРАЕВ,
ФМИ марказ бошлиғи,
подполковник.

«Taxiatosh issiqlik elektrstansiyasi» AJ binolarida yong'in xavfsizligini ta'minlashni tashkil etish bo'linmasida yosh chegarachi 35 yoshgacha bo'lgan oddiy askar va serjantlar tarkibidan tuzilgan “Vatanparvar”, “Qutqaruvchi”, “Olov” “Jangovar” nomli 4 ta jamoa o'rtasida ko'rik-tanlov o'tkazildi.

KO'RIK-TANLOV



Tadbir davomida ishtirokchilarning nazariy bilimlari ular egallab turgan lavozimidan kelib chiqqan holda ishlab chiqilgan test sinovlari orqali aniqlandi. Sport to'sinida tortilish, 100 va 3000 metrga yugurish orqali ishtirokchilarning jismoniy tayyorgarlik darajasi ma'lum bo'ldi.

Ko'rik-tanlov natijalariga ko'ra, “Olov” jamoasi 3-o'rinni, “Vatanparvar” jamoasi 2-o'rinni, “Qutqaruvchilar” jamoasi

faxrli 1-o'rinni egallab, ikkinchi bosqichga yo'llanmani qo'lga kiritdi.

G'oliblar bo'linma boshlig'i tomonidan birinchi, ikkinchi va uchinchi darajali diplomlar bilan taqdirlandilar.

S.MINSIZBAYEV,
«Taxiatosh issiqlik elektrstansiyasi» AJ binolarida YXTTEB boshlig'i, mayor.

S.QURBONBOYEV,
28-YQQ boshlig'i,
mayor.

ТОҒ ТАЙЁРГАРЛИГИ

“Қамчиқ” довонида қутқарувчилар иштирокида тоғ тайёргарлиги бўйича махсус амалий-тактик машқи ўтказилди.

Машқ давомида “Ғарбий” порталдан “Шарқий” портал йўналиши бўйлаб 2 км. масофа оралиғида гуруҳ таркибида тоғ қияликлари айланилиб, тоғ дарёси арқон ёрдамида осма ўтказгич усулида кечиб ўтилди.

Тадбир доирасида шартли жабрланганларга биринчи тиббий

ёрдам кўрсатилиб, жойлашув нуқтасини топографик харитада белгилаш вазифаси бажарилди. Омон қолиш асослари бўйича қутқарувчиларнинг билим-кўникмалари янада мустаҳкамланди.

Ш.АБДУСАТТОРОВА,
“Қамчиқ” МҚКБ
ходими.



ОРОМГОҲДА ТАРГ'ИБОТ

Bolalarning ta'til davridagi bo'sh vaqtlarini mazmunli va maroqli o'tkazish maqsadida Samarqand viloyatida 16 ta yozgi bolalarni sog'lomlashtirish oromgohlari tashkil etilgan. Ushbu oromgohlarda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlarning oldini olish va yong'in xavfsizligini ta'minlash muhim vazifa hisoblanadi.

Shu boisdan Samarqand tumanidagi "Alpomish" nomli bolalarni sog'lomlashtirish oromgohida FVB xodimlari tomonidan profilaktik tadbir tashkil etildi.

Tadbir davomida bolajonlarga turli xil favqulodda vaziyatlar sodir bo'lganda to'g'ri harakatlanish usullari o'rgatildi. Shundan so'ng yong'in-qutqaruv faoliyatida foydalaniladigan maxsus texnika va vositalar namoyishi o'tkazildi.

Tadbir yakunida faol eshtirik etgan bolajonlar taqdirlandi.

FVV Matbuot xizmati.

SPORT O'YINLARI

O'zbekiston Respublikasi FVV Akademiyasi huzuridagi Boshlang'ich tayyorgarlik va malaka oshirish markazida tinglovchilar o'rtasida “Sportni sev, sport bilan birga yasha” shiori ostida stol tennis musobaqasi tashkil etildi.



Mazkur tadbirda markaz boshlig'i polkovnik Sh.Ayubov mamlakatimizda sportning ommaviyligini ta'minlash, aholi, ayniqsa, turli soha vakillari o'rtasida jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanish har tomonlama qo'llab-quvvatlanayotganini e'tirof etdi.

Musobaqa yakuni

bo'yicha 3-o'rinni 1-guruh tinglovchisi xizmatchi B.Bayramov, 2-o'rinni 1-guruh tinglovchisi oddiy askar L.Xolmatov, 1-o'rinni 5-guruh tinglovchisi oddiy askar B.Xolmatov qo'lga kiritdi.

J.SAIDOV,
FVV Akademiyasi huzuridagi BTvaMOM bo'linma boshlig'i,
podpolkovnik.

AMALIY YORDAM

Qutqaruv xizmatiga Chiroqchi tumani “Langar” mahallasi hududidagi tog' cho'qqilarida bir insonning sog'ligi yomonlashgani va uni kasalxonagacha yetkazish uchun amaliy yordam kerakligi to'g'risida murojaat kelib tushgan.

Xabarga ko'ra, Chiroqchi tumani FV bo'limidan 1 nafar ofitser va 4 nafar qutqaruvchi, 2 nafar tibbiyot xodimi hamrohligida qariyb 4 soat yo'l yurib, voqea joyiga yetib borilgan. Bemorga birinchi tibbiy yordam ko'rsatilib, mahalliy aholi yordamida tez tibbiy yordam xizmatiga yetkazilgan. Ma'lum bo'lishicha, mazkur vaziyat To'laqul qishlog'ida yashovchi fuqaro M.I. taxminan 2000 metr balandlikdagi cho'qqilarning birida chorva mollarini boqish bilan band bo'lgan vaqtida qon bosimi oshishi ortidan ro'y bergan. Hozirda bemor shifoxonada tibbiyot xodimlari nazorati ostida.

Qashqadaryo viloyati FVB matbuot xizmati.



YONG'IN O'CHIRILDI

Shahrisabz shahar FV bo'limiga “Kesh” MFY, Ipak yo'li ko'chasida joylashgan fuqaro N.A.ga tegishli pishiriq sexida yong'in sodir bo'layotganligi to'g'risida xabar kelib tushgan.

Xabarga ko'ra, Shahrisabz shahar FV bo'limidan 2 ta yong'in-qutqaruv bo'linmasi yetib borib, yong'in to'liq o'chirilgan.

Sexning 38 kvadrat metr maydonida ichki va tom qism yonib zararlangan. Yong'in-qutqaruvchilarning sa'y-harakatlari natijasida binoning 174 kvadrat metr maydoni saqlab qolingan.

Yong'in oqibatida tan jarohati olganlar yo'q. Hozirda yong'in sababi va zarar miqdori aniqlanmoqda.

Qashqadaryo viloyati FVB matbuot xizmati.



ФИДОЙИ ХИЗМАТ ШУКУҲИ

Истиқлол даврининг фарзандларидан ҳисобланган Ҳурматбек Раҳимберганов дунёқараши кенг, атроф-оламга тийрак нигоҳ билан боқадиган, янгича фикрлайдиган, куч-ғайратга тўла қутқарувчилардан бири. Аини пайтда Ўзбекистон Республикаси Фавқулодда вазиятлар вазирлиги “Қамчиқ” махсус қидирув, ёнғин-қутқарув бошқармаси Авария-қутқарув отряди “Чодак” авария-қутқарув гуруҳи йўриқчи-қутқарувчиси лавозимида фаолият юритиб келаётган Ҳ.Раҳимберганов 1992 йил 24 декабрь куни Хоразм вилояти Қўшқўпир туманида Ойбек Саъдуллаев ва Гулнора Ғойибовалар хонадонидан дунёга келган.

Ҳурматбек 2008 йилда Қўшқўпир қурилиш ва транспорт касб-хунар коллежидан ўқишга қабул қилинган ва “Бухгалтерия ҳисоби ва аудит” йўналишида таҳсил олган. 2011 йилда ушбу таълим даргоҳини тамомлаган қаҳрамонимиз ўша йилнинг ўзида Ўзбекистон мудофаасига кўмаклашувчи “Ватанпарвар” ташкилотининг Хоразм вилоят кенгашига қарашли Бирлашган техника мактабидан таҳсил олиб, “Радиотелефонист” мутахассислигига эга бўлди. 2012 – 2013 йиллар давомида Урганч шаҳридаги ҳарбий қисмда ўқчи вазифасида муддатли ҳарбий хизматни ўтади.

2014 йилда Хоразм вилояти ФВБ қидирув-қутқарув гуруҳида хизмат фаолиятини бошлади. 2017 йилдан буён “Қамчиқ” домини автомобиль йўлларида хавф солув-

чи кўчки, сел ва сув тошқинларни бартараф этишга муносиб ҳисса қўшиб келмоқда.

– Турмуш ўртоғим билан 2 нафар фарзандни тарбиялаб, бахтли яшаб келмоқдамиз, – дейди Малика Отаназарова. – Бу киши фарзандларимизга жуда меҳрибон. Қолаверса, уларнинг тарбияларига жуда эътибор қаратади. Қутқарувчилик – шарафли касб, турмуш ўртоғим ҳар куни кимнингдир ҳаётини асраб қолади ёки кимгадир беминнат ёрдам қилини чўзади. Ҳарбий хизматчининг турмуш ўртоғи бўлиш сабр ҳамда матонатни талаб этади.

Албатта, мардларга хос бўлган савобли ишларни сидқидилдан адо этаётган қутқарувчимизнинг ҳамкасблари жуда ҳурмат қилишади. Чунки у кеча-ю кундуз, ва-

зиятнинг қай даражада мураккаблигидан қатъи назар, биринчи бўлиб ёрдамга келишга доимо шай туради. Агар қутқарувчи бир неча сония кечикса, жабрланувчининг ҳаётини сақлаб қолиш даргумон.

Ҳурматбек Раҳимберганов жамоат масканларида, аҳоли пунктларида, кўп қаватли бино ва иншоотларда, тоғли ҳудудларда ер ва қор кўчкилари, сел ва сув тошқини хавфи бўлган жойларда фавқулодда вазиятлар хавфини юмшатиш, содир бўлганда оқибатларини бартараф қилиш, қидирув-қутқарув ишларини олиб боришда ўз вазифасига фаоллик ҳамда ўзгача масъулият билан ёндашади.

Қаҳрамонимиз турли кўринишдаги фавқулодда вазиятларда кўплаб инсонларнинг ҳаётини сақлаб қолган. У турли тадбирлар, жангавор ўқув-тайёргарлик машғулотларида мунтазам қатнашиб, ўз касбий тайёргарлик даражасини ошириб боради. Ҳурматбек Раҳимберганов биргина 2019 йилнинг ўзида сафдошлари билан 25 марта навбатчилик масканидан хизматга отланиб, 29 инсоннинг ҳаётини асраб қолишга муваффақ бўлган. Шунингдек, ФВБ биринчилиги мусобақаларида “Кросс-фит” тури бўйича биринчи ўринни қўлга киритган. Бу эса аҳоли ва ҳудудлар муҳофазаси йўлида тиним билмасдан хизмат қилаётган ғайратли халоскорларимизнинг хизмат вазифаларини сидқидилдан бажа-

риб келаётганлигидан далолатдир.

Ҳурматбек ўз хизмат тажрибалари билан ёш ходимларни она-Ватанга муҳаббат, бурчга садоқат руҳида тарбиялашда фаол иштирок этиб келмоқда. Унинг фидойи хизматлари беиз кетмади. 2021 йилда Ўзбекистон Республикаси Мустақиллигимизнинг 30 йиллиги муносабати билан Фавқулодда вазиятлар вазири томонидан «Аъло хизматлари учун» кўкрак нишони билан тақдирланди.

– Камтарона хизмат фаолиятимга муносиб баҳо сифатида берилган ушбу мукофот зиммамга улкан масъулият юклайди. Фурсатдан фойдаланиб, менга нисбатан билдирилган ушбу ишонччи оқлаш учун хизмат вазифамдан келиб чиққан ҳолда, бор имкониятларимни ишга соламан, – дейди қаҳрамонимиз.

Қутқарувчилик ўта масъулиятли ва шу билан бирга, шарафли ҳамда хайрли касбдир. Қаҳрамонимиз фидойи қутқарувчи сифатида инсонлар хавфсизлигини таъминлашдек эзгу ишларни сидқидилдан давом эттириб, халқимизнинг дуосини олиб келмоқда.

Ҳа, юртимизда Ҳурматбек Раҳимбергановдай қутқарувчи қаҳрамонларимиз кўпаяверсин.

Анвар ҚОБИЛОВ,
“Vaziyat” мухбири.

Шаҳзода АБДУСАТТОВА,
“Қамчиқ” МҚКБ ходими.



TUSHUNTIRISH ISHLARI

Mavsum boshidan 27 marotaba amalga oshirilgan nazorat tadbirlarida Mirishkor, Nishon va Qarshi magistral kanallarida fuqarolarning taqiqlangan joylarda cho'milish holatlari aniqlangan. Ushbu tadbirlar davomida 750 nafardan ortiq turli yoshdagi fuqarolarning cho'milish holatlari ma'lum bo'lgan. Viloyat FVB xodimlari hamda mutasaddi tashkilotlar hamkorligida fuqarolarga tushuntirish ishlari olib borilmoqda.



Yaqinda Qashqadaryo viloyatining Yakkabog' tumanidagi suv havzalaridan birida 17 yoshli yigit cho'kib ketib, vafot etdi. Xuddi shu kabi baxtsiz hodisalar sodir bo'lishining oldini olish maqsadida Qashqadaryo viloyati FVB hamda Qarshi shahar va Qarshi tuman FV bo'limi xodimlari ishtirokida Qashqadaryo daryosining Qarshi shahri hamda Qarshi tumani hududlaridan o'tgan qismlarida o'tkazilgan

reyd tadbirida qariyb, 40 nafardan ortiq turli yoshdagi kishilarning taqiqlangan hududlarda cho'milishayotgani aniqlandi. Ular orasida, afsuski, voyaga yetmaganlar ham bor.

Abbos HAMRAYEV,
Nishon tumani FV bo'limi bo'linma boshlig'i, katta leytenant.

Ozodbek JABHAROV,
Chiroqchi tumani FV bo'limi bo'linma boshlig'i, kapitan.

Наманган вилояти ФВБ ходимлари томонидан лойиҳа институтлари раҳбарлари ва мутахассислари иштирокида ўқув семинари ўтказилди.

МАСЪУЛИЯТ ВА БУРЧ

Тадбир давомида янги қурилишларда ҳамда уларни лойиҳалашда ёнғин хавфсизлиги талабларининг бажарилиш ҳолати, ёнғин хавфсизлиги талабларидан асосли равишда четга чиқилган ёки бундай талаблар мавжуд бўлмаган объектларни қуриш учун лойиҳа ҳужжатларини ишлаб чиқишдаги муаммолар, шунингдек, кўп қаватли турар жой биноларига бўлган талаблар хусусида ўзаро фикр-мулоҳазалар билдирилиб, мутасаддиларга зарур кўрсатма ва тавсиялар берилди.

Иброҳим КАРИМОВ,
Наманган вилояти ФВБ бўлим инспектори, катта лейтенант.



СУВ ҲАВЗАЛАРИДА

Қамаши тумани ҳудудидаги сув ҳавзаларида аҳоли хавфсизлигини таъминлаш ва чўкиш билан боғлиқ ноҳуш ҳолатларнинг олдини олиш мақсадида, туман ҳокимининг "Профилактик чора-тадбирлар режаси" ишлаб чиқилган

Шунга кўра, ҳозирда туман ФВ бўлими ходимлари ва тегишли хизматлар вакиллари иборат ишчи гуруҳлар тузилиб, уларнинг фаолияти кучайтирилган. Ишчи гуруҳлар томонидан ташкиллаштирилган тадбирлар давомида сув ҳавзалари ўрганиб чиқилиб, аҳолининг сувда чўкиши билан боғлиқ бахтсиз ҳодисалар таҳлил қилинди. Қўриқланмайдиган сув ҳавзаларида аҳолининг чўмилишига йўл қўймаслик юзасидан рейдлар ўтказилди.

Ушбу тадбирлар туман миқёсида кучайтирилган тарзда давом эттирилмоқда.

О.ҲУШВАҚОВ,
Қамаши туман ФВ бўлими НТБ бошлиғи, капитан.

ҚУРИЛИШ ОБЪЕКТЛАРИДА

Деҳқонобод тумани ФВ бўлими ходимлари томонидан "Завқий" ҳамда "Аэродром" МФЙларда "Обод маҳалла", "Обод қишлоқ" давлат дастури асосида қурилаётган ва реконструкция қилинаётган бинолар ҳамда қурилиш майдонида меҳнат қилаётган ишчи-хизматчилар иштирокида тарғибот ва ташвиқот ишлари олиб борилмоқда.

Ташкил этилаётган тадбирлар давомида вақтинча яшаш вагонларида хавфсизликни таъминлаш ва электр тармоқларидан тўғри фойдаланиш қоидаларига риоя этиш борасида тушунтириш берилмоқда.

Ю.МЕНГЛИЕВ,
Деҳқонобод тумани ФВ бўлими ходими, катта лейтенант.

ЎРГАНИШ



Боев тумани "Ширин" маҳалласида қурилаётган иссиқлик электр станциясида ёнғиндан автоматик хабар бериш ва сувли автоматик ёнғин ўчириш қурилмаларини фойдаланишга қабул қилиш бўйича дастлабки ўрганиш ишлари олиб борилди.

ФВБ Норматив-техник бошқармаси ҳамда вилоят ФВБ раҳбарияти томонидан ўтказилган ўрганишлар давомида Саудия Арабистонининг "The International Company for water and power projects" компанияси ва "Acwa Power Sirdaryo" МЧЖ ҳамкорлигида барпо этилаётган қуввати 1500 МВт бўлган станцияда ёнғин хавфсизлигини таъминлаш борасидаги ишларга эътибор қаратилди.

Фойдаланишга қабул қилиш жараёнида аниқланган камчиликларни бартараф этиш юзасидан масъулларга тегишли топшириқлар берилди.

С.МУҲАММАДИЕВ,
Сирдарё вилояти ФВБ бўлим бошлиғи, майор.
Ю.ЭГАМБЕРДИЕВ,
Ширин шаҳар ФВ бўлими бошлиғи ўринбосари, капитан.

Тупроққалъа тумани ФВ бўлими ходимлари 2023 йилнинг ўтган 6 ойи мобайнида Вазирлар Маҳкамасининг қарорлари талабларига асосан, Давлат архитектура ва қурилиш қўмитасида ташкил этилган республика комиссияси таркибида иш юритиб келмоқдалар.

ТАЛАБ ВА ТАКЛИФ

Мазкур тадбирлар давомида жисмоний ва юридик шахсларга тадбиркорлик объектларини қуришга ажратилиши тавсия этилган жами 155 та ер майдони тааллуқли ҳужжатлар шаҳарсозлик норма ва қоида-талаблари асосида ўрганиб чиқилиб, 143 тасининг жойлашувига рухсат берилди.

Амалга оширилаётган тадбирлар доирасида пудратчи ҳамда буюртмачиларга янги қурилаётган объектнинг тоифасидан келиб чиққан ҳолатда ёнғинга қарши тадбирлар, йўл қўйилган камчиликлар юзасидан зарур топшириқлар бериб борилмоқда.

Самандар САМАНДАРОВ,
Тупроққалъа тумани ФВ бўлими бўлинма бошлиғи, катта лейтенант.

МУНОФАЗА

Xorazm viloyati FVB va uning quyi tizimlari tomonidan qurilish obyektlarida yong'in xavfsizligini ta'minlash maqsadida loyihalash tashkilotlarida ishlab chiqilayotgan obyektlarning loyiha hujjatlari yong'inga qarshi tadbirlarni bajarilishi nuqtayi nazaridan o'rganib chiqilmoqda.

O'rganish jarayonlarida buyurtmachi, loyiha va pudratchi tashkilotlar hamda qurilish sohasida vakolatli organlarga zarur ko'rsatma va tavsiyalar berilmoqda.

Ilhom ALLABERGANOV,
Xorazm viloyati FVB bo'lim boshlig'i, podpolkovnik.

Xorazm viloyati FVB mas'ul xodimlari tomonidan Urganch markaziy dehqon bozori hududidagi savdo majmualarining yong'in xavfsizligi holati o'rganib chiqildi.

XAVFSIZLIK KAFOLATI

O'rganishlar davomida hududlarga yong'in-qutqaruv avtomobillari jalb qilinib, bozor ma'muriyati, savdo majmualari rahbarlari va savdogarlarga hududda olovli ishlarni olib bormaslik, yonuvchi suyuqliklar hamda yonuvchi gaz ballonlarini o'rnatmaslik, elektr sim va kabellarni qoidaga asosan o'tkazish hamda ortiqcha yuklanish kelib chiqishiga olib keluvchi holatlarga yo'l qo'yimaslik lozimligi ta'kidlandi.

Aniqlangan kamchiliklar va qoida buzilishi holatlari bo'yicha do'kon egalari va sotuvchilarga yo'riqnomalar berilib, yong'inlarda to'g'ri harakat qilish, o'z vaqtida xabar berish va birlamchi yong'in o'chirish vositalaridan foydalanish tartibi yuzasidan ma'lumotlar berildi.

Ilhom ALLABERGANOV,
Xorazm viloyati FVB bo'lim boshlig'i, podpolkovnik.

Bekobod shahri hududida yangi qurilayotgan hamda rekonstruksiya qilinayotgan qurilish maydonlarida yong'inlar va turli ko'ngilsiz hodisalarning oldini olish maqsadida ishchi-xizmatchilar ishtirokida profilaktik suhbatlar olib borilmoqda.

A.HAYITBOYEV,
Bekobod shahar FVbo'limi MTB boshlig'i, leytenant.

TAVSIYA

MUHIM TALAB

Yakkabog' tumanidagi "Istiqlol g'unchalari", "Sirlı koinot" va Shahrisabz tumanidagi "Lochin", Shahrisabz shahridagi "Beruniy" bolalar dam olish oromgohlarida "Fuqaro muhofazasi" tuzilmalarining favqulodda vaziyatlarda to'g'ri harakatlarni yuzasidan o'quv mashg'ulotlari bo'lib o'tdi.



Mashg'ulot rejasiga ko'ra, oromgoh tarbiyalanuvchilaridan birini shartli ilon chaqib jarohatlagan bo'lsa, ikkinchisi maskan ichidan oqib o'tgan ariqda o'zining ehtiyotsizligi ortidan (shartli) cho'kkan bolajonni xavfsiz hududga olib chiqish va birinchi tibbiy yordam ko'rsatish harakatlari amalga oshirildi.

Shuningdek, oromgohlarda zilzila vaqtida bolajonlarni xavfsiz hududga olib chiqish va tan jarohati olganlarga birinchi tibbiy yordam ko'rsatish harakatlari amaliy bajarib ko'rsatildi.

O'quv mashg'ulotlari davomida yong'in-qutqaruv bo'linmalari tomonidan bolajonlar uchun sodir bo'lgan shartli yong'in va boshqa favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish harakatlari ko'rgazmali chiqishlar orqali namoyish etildi.

Sohibjon VAYITOV,
Qashqadaryo viloyati FVB
axborot xizmati boshlig'i, mayor.
Bobur HAMIDOV,
bo'lim boshlig'i, katta leytenant.

Qashqadaryo viloyati FVB mas'ullari tomonidan Qarshi, Shahrisabz, Chiroqchi, Yakkabog', Kitob va Qamashi tumanlaridagi mavjud savdo majmualari, yirik bozorlarda yong'in xavfsizligi qoidalariga qat'iy amal qilish bo'yicha targ'ibot tadbirlari amalga oshirilmoqda.

HUSHYORLIK



Bozor ma'muriyati hamda sotuvchi tadbirkorlarga maxsus ishlab chiqilgan eslatmalar tarqatilib, yong'in xavfsizligi bo'yicha yo'riqnomalar berilmoqda. Yirik savdo komplekslarida yong'in-qutqaruv texnikalarida harakatlaniib, unga to'siq bo'luvchi har qanday buyumlarning olib tashlanishiga erishilmoqda.

Hozirda bu kabi tadbirlar davom ettirilmoqda.

Shaxboz BOBOMURODOV,
Qashqadaryo viloyati FVB matbuot
xizmati xodimi, oddiy askar.

Anvar MO'MINOV,
Chiroqchi tumani FV bo'limi boshlig'i,
podpolkovnik.

Хива шаҳар ФВ бўлими, ИИБ, шаҳарлараро қуриқлаш бўлими вакиллари маҳалла ёшлар етакчилари билан ҳамкорликда белгиланмаган жойларда чўмилаётган фуқаролар ва ёш болалар билан профилактик суҳбатлар олиб бормоқдалар.

ДОЛЗАРЬ МАВЗУ

Хусусан, шаҳардаги одамлар кўп тўпланадиган масканлар ва бозорлар ҳамда "Ғунча", "Алпомиш" ёзги болалар дам олиш оромгоҳларига 2x1 метрли 6 та баннер ўрнатилиб, кўчалардаги электрон таблоларда сувда бахтсиз ҳодисаларнинг олдини олишга қаратилган видеороликлар намойиш қилинмоқда.

Шунингдек, аҳолини

фавқулудда вазиятларда тўғри ҳаракат қилишга ўргатиш бўйича мактабгача ва умутаълим мактабларида, педагогика ва тиббиёт коллежларида ишчи-хизматчилар, талабалар, маҳаллаларда аҳоли иштирокида семинар ва учрашувлар ўтказилмоқда.

Жамол АЛИМОВ,
Хива шаҳар ФВ бўлими
бошлиғи, подполковник.

НАЗОРАТ

Деҳқонобод туманидаги ижтимоий-иқтисодий объектлар, давлат ва жамоат ташкилотлари ҳамда аҳоли яшаш пунктлари, таълим ва даволаниш муассасалари, савдо мажмуаларида ёнғинлар, табиий ва техноген тусдаги фавқулудда вазиятлардан муҳофазаланиш бўйича кенг қамровли профилактик тadbirlar, тарғибот-ташвиқот ишлари, учрашув ва давра суҳбатлари ўтказилмоқда.

Мазкур тadbirlarда ёнғин ва техника хавфсизлиги қоидаларига қатъий амал қилиш юзасидан тушунтириш ишлари олиб борилаётган.

Ўткирбек ЮЛДАШЕВ,
Деҳқонобод тумани
ФВ бўлими бўлинма бошлиғи, майор.

PROFILAKTIKA KUNI

Koson tumani FV bo'limi xodimlari tomonidan mahallalarda yong'in xavfsizligini ta'minlash, aholi yashash xonadonlarining yong'inga qarshi holatini o'rganish, targ'ibot hamda tashviqot ishlarini kuchaytirishga jiddiy e'tibor qaratilmoqda.

O'rganish jarayonida yong'in xavfsizligi qoidalariga zid ravishda elektr hamda gaz maishiy asboblardan foydalanish holatlari aniqlanib, qoidalarni qo'pol ravishda buzib kelayotgan fuqarolar va mansabdor shaxslarga nisbatan O'zbekiston Respublikasi MJTKning 211-moddasi 1-qismi bilan ma'muriy jazo choralari qo'llanildi.

A.QULBULOV,
Koson tumani FV bo'limi boshlig'i
o'rinbosari, kapitan.
T.TURSUNBOYEV,
bo'lim inspektori, leytenant.

НОҚОНУНИЙ ИШ – КЕЛТИРАП ТАШВИШ

Деҳқонобод тумани ҳудудида «Обод қишлоқ» ва «Обод маҳалла» давлат дастурлари доирасида янги қурилаётган ҳамда реконструкция қилинаётган қурилиш майдонларида бунёдкорлик ишларини олиб бораётган ишчи-хизматчилар иштирокида ёнғин, ис ва газ ва чақнаш билан боғлиқ фавқулудда вазиятларнинг олдини олиш бўйича ўқув машқлари ўтказилмоқда.

Ушбу тadbirlar доирасида ишчи-хизматчиларга қурилиш ишлари давомида техника хавфсизлиги қоидаларига риоя этиш юзасидан йўриқномалар берилмоқда, тушунтириш ишлари амалга оширилмоқда.

Ю.МЕНГЛИЕВ,
Деҳқонобод тумани ФВ бўлими
бўлинма бошлиғи,
катта лейтенант.

SAVDO KOMPLEKSLARIDA



Bekobod shahar FV bo'limi xodimlari va hamkor tashkilotlar vakillari tomonidan dehqon bozori va savdo komplekslarida yong'inlar va boshqa tusedagi favqulodda vaziyatlarning oldini olish maqsadida profilaktik tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Tadbirlar davomida tadbirkorlar va fuqarolar bilan suhbatlar olib borilib, ularga bozor hududida va o'ziga tegishli savdo do'konidagi elektr jihozlarini nazoratsiz qoldirmaslik kerakligi tushuntirilmogda.

Akbarali HAYITBOYEV,
Bekobod shahar FV bo'limi MTB
boshlig'i leytenant.

O'zbekiston" xalqaro anjumanlar saroyida korrupsiyaning har qanday ko'rinishini bartaraf qilish uchun birgalikda kurashish masalasiga bag'ishlangan yig'ilish bo'lib o'tdi.

JAHOLAT BOTQOG'I



Tadbir davomida korrupsiya har qanday jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy hayotiga xavf soladigan, qolaversa, mamlakat taraqqiyotiga to'siq bo'ladigan illat ekanligi qayd etildi. Unga qar-

shi kurashish muntazam ravishda amalga oshirilishi zarurligi aytiladi.

Yerjon DJUMANOV,
Xalqaro anjumanlar saroyi
YXTTEB mutaxassisi,
oddiy askar.

XOTIRJAMLIK GAROVI

Olmaliq shahar FV bo'limi, Milliy gvardiya hamda Sanitariya-epidemiologiya osoyishtalik va jamoat salomatligi qo'mitasi xodimlari hamkorligida "Oydin" dehqon bozori va savdo majmualarida targ'ibot ishlari olib borilmoqda.

O'rganishlar davomida tadbirkorlar va fuqarolarning savdo mollari bilan yo'llarga chiqib ketishi hamda noqonuniy ravishda temir to'siqlar o'matib olish holatlari aniqlandi. Favqulodda vaziyat joyiga qutqaruvchilarning tez va oson yetib borishini ta'minlash maqsadida yo'llar turli to'siqlardan tozalandi.

Aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish choralari ko'rib, bozor ma'muriyatiga bir qator tavsiyalar berildi.

Shahzod SHERQULOV,
Olmaliq shahar FV bo'limi
MTB boshlig'i, katta
leytenant.

Nurbek ASHURALIYEV,
FVDT va FMB boshlig'i,
leytenant.

ҚУТЛОВ

Ўзбекистон Республикаси Ёзувчилар уюшмаси аъзоси, таниқли болалар шоири, филология фанлари номзоди, халқаро “Олтин қалам” мукофоти соҳиби, кўп йиллар ФВВ Бирлашган таҳририятида бош муҳаррир ўринбосари, бош муҳаррир лавозимларида хизмат қилган, ҳозирда “Муҳаррир” нашриётида бош муҳаррир вазифасида фаолият юритиб келаётган Ражабов Дилшод Эсонович мамлакатимиз Президентининг “Матбуот ва оммавий ахборот воситалари ходим-

лари куни муносабати билан соҳа ходимларидан бир гуруҳини мукофотлаш тўғрисида”ги фармонида биноан II даражали «Соғлом авлод учун» ордени билан тақдирланди.

Дилшод Ражабовни ушбу юксак мукофот билан чин дилдан муборакбод этган ҳолда, кўп йиллар ижодда, соғлом ва баркамол авлоднинг маънавий-маърифий тарбиясида бардавом бўлишни тилаб қоламиз.

ФВВ Бирлашган таҳририяти жамоаси.



ОТА

Ўзингиздир метин қалқоним,
Ёв йўлломас юксак қўргоним,
Нур порлаган ёруғ жаҳоним,
Борингизга шукур, отажон!

Ҳар бир ишда суянган тоғим,
Яшнаб турган меҳрли боғим,
Қадрдоним, юрак ардоғим,
Борингизга шукур, отажон!

Ҳаёт йўлларимда мадақдор,
Бахтли бўлишимга сабақдор,
Сиз борсизки, менга зафар ёр,
Борингизга шукур, отажон!

Ҳар лаҳзада мени ўйлаган,
Чин юракдан омад тилаган,
Мақсад сари дадил йўллаган,
Борингизга шукур, отажон!

Оёғимдан чалганда ёмон,
Дуоингиз менга ёр ҳар он,
Бахтимизга бўлинг соғ-омон,
Борингизга шукур, отажон!

Нилуфар МИРЗААҲМЕДОВА,
Тошкент кимё халқаро
университети талабаси.

ЭЪТИРОФ



Мамлакатимизда ҳамда Қуролли Кучларда амалга оширилаётган кенг кўламли ислохотлар, янгиланиш ва инновация жараёнларидаги фаол иштироки, ҳарбий хизматчилар ва ёш авлодни Ватанга муҳаббат, ватанпарварлик, истиқлол ғояларига садоқат руҳида тарбиялаш борасида ҳамкорликдаги фаолияти учун ФВВ “Вазият” газетаси ва “Муҳофаза+” журнали бирлашган таҳририяти бош муҳаррири в.б. Азамат Суюнов Ўзбекистон Республикаси Бош прокурорининг ўринбосари – Ўзбекистон Республикаси Ҳарбий прокурори адлия полковниги Б.Б.Қудратходжаев томонидан “Фахрий ёрлиқ” билан тақдирланди.

Устоз журналист Азамат Суюновни мазкур эътибор ва эътироф билан чин дилдан муборакбод этиб, келгусидаги ижодий ишларида муваффақиятлар тилаб қоламиз.

ФВВ матбуот хизмати.

БИРИНЧИ ЭНЦИКЛОПЕДИЯНИ КИМ ЁЗГАН?

Биламизки, инсон ўзи учун зарур бўлган муҳим маълумотларга эга бўлиши ҳамда зарур ахборотларни олиши учун кўпинча Энциклопедиянинг ёрдамига эҳтиёж сезади.

“Энциклопедия” сўзи дастлаб Юнонистонда пайдо бўлган ва “Ҳаёт учун барча зарур йўл-йўриқлар” деган маънони билдирган. 1538 йилда Томас Элиот бу сўзни инглиз тилига биринчи марта киритган ҳамда уни “жами маълум фанлар ва соҳаларни тушунтириб берувчи китоб” сифатида талқин этган.

Бугунги кунда сўзлар қомусларида алифбо тартибда жойлаштирилган. Шу боис, зарур сўзларни топиш жуда осон. Аммо қадимий энциклопедияларнинг муаллифлари уларда сўзларни ўзларига маъқул тартибда жойлаштирилган. Масалан, Ўрта асрлар қомусларидан

бирининг муаллифи китобни Тангри ва фаришталар ҳақида хиссагўйликдан бошлаб, ифорлар ва ислар, гуллар тавсифи ва 36 хилдаги тухум рўйхати билан ниҳоялаган.

Ҳозирги кунга қадар етиб келган энг қадимий қомус миллоддан аввалги I асрда Римда Плиний томонидан битилган. У “Табиий тарих” деб номланган. Китобнинг 37 жилдида 20 000 дан ортиқ мақола нашр этилган. Плиний 450 дан зиёд муаллифнинг иқтибосларидан истифода этган. Бу китобни шу қадар қимматли санашганки, 1536 йилга қадар уни 43 марта қайта нашр этилган! Учинчи Хитой қомуси энг катта бўлган. Хитойнинг 1721 йилда вафот этган императорларидан бири бу китобга тартиб беришни амр қилган эди. У 5020 жилддан иборат бўлган!



Инглиз руҳонийси Жон Харрис сўзлар алифбо тартибда жойлаштирилган биринчи қомусни тузган. Китоб 1704 йилда босмадан чиққан ва “Инлизча универсал Фан ва Санъат луғати” деб номланган.

Францияда 1743 йилдан эътиборан тагин бир қомус – “Энциклопедия” чиқа бошлаган. Волтер, Руссо, Дидро

сингари кўпгина таниқли фан арбоблари мақолалар устида ишлаганлар ва бу нарса уни қолган китоблардан ажратиб турган. “Британик қомуси ёхуд Санъатлар ва Фанлар луғати” эса илк дафъа 1768 йилда Шотландияда чоп этилган.

Интернет манбалари асосида тайёрланди.



Vaziyat

газетаси

Муассис:
Ўзбекистон Республикаси
Фавқулодда вазиятлар
вазирлиги

Бош муҳаррир в.б.
Азамат СҮЮНОВ

Газета таҳририят компьютерхонасида саҳифаланди.

Газета ҳар ҳафтанинг пайшанба куни чиқади.
Топшириш вақти — 15:00.
Топширилди — 15:00.

Навбатчи:
Б. ВАЛИЕВ

Таҳририятга юборилган материаллар қайтарилмайди ва изоҳ берилмайди.
Муаллифлар фикри таҳририят нуқтаи назаридан фарқланиши мумкин.

Газетадан олинган материаллар манбаси кўрсатилиши шарт.

Газета Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлигида 2007 йил 3 январда 0096-рақам билан рўйхатга олинган.
ISSN 2091-5292

Таҳририят манзили:
100084, Тошкент шаҳри,
Кичик ҳалқа йўли, 4-уй.
Тел.: (71) 231-96-71
Телеграмм: (90) 016-87-67

Индекс:
якка обуначилар ва ташкилотлар учун – 382

Газета “BUSINESS PRINT DESIGN” босмахонасида босилди.
Манзил: Тошкент шаҳри, Сўғалли ота кўчаси, 5-уй.
Буюртма №
Бичими: А3, ҳажми: 2,0 б.т
Адади — 5983 нусха